

**Asfaltbeton qorishmalari uchun mineral materiallarning
sifatini oshirish**

Xoliqov O'.Q.(talaba)

Ilmiy raxbar: katta o'qituvchi Amirov T.J.

Avtomobil yo'llari tarmog'ni rivojlantirish va takomillashtirishning milliy dasturini amalga tadbqiq etish mavjud yo'llarning texnik darajasini va foydalanuv holatini yaxshilashni talab etadi. Bugungi kunda umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarining 54 % asfaltbeton qoplamali bo'lib, qoplamalardan foydalanish ko'p yillik tajiribasi shuni ko'rsatadiki ba'zi hollarda ular me'yorda belgilangan xizmat muddatiga yetib bormaydi.

Hozirgi paytda avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va tayorlashda bahorgi va kuzgi ko'rik natijalari deyarli e'tiborga olinmasdan subektiv omillarga asoslanib amalga oshirilmoqda. Ayrim hollarda yo'llarning transport ekspluatatsion holatini oshirish bo'yicha ishlar amaldagi talablardan ortda qolib, deformatsiya va buzilishlarning oldi olinmayapti.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra avtomobil yo'llari tarmog'ida 59 % yo'llarning ta'mirlanish muddatlari o'tib buzilish surati ularning ta'mirlanish suratidan oldin ketmoqda va bu farq yildan-yilga o'sib bormoqda[1].

Bularni hisobga olgan holda ta'mir ishlarini rejalash strategiyasini o'zgairtirsh lozim yani deformatsiyalar va buzilishlarni yuqotishga emas oldini olish prinsipiga o'tish kerak.

Chunki, yo'l to'shamalarini ekspluatatsiya qilish davomida turli buzilishlar hosil bo'ladi. Bu esa mustahkamlik, ravonlik kabi ekspluatatsiya sifatleri va ko'rsatkichlari asta-sekin yomonlashishiga olib keladi.

Shuning uchun asfaltbeton qoplamali yo'l to'shamalarida buzilishlarning to'planishi jarayonlarini tadqiq etib, xizmat muddatlarini belgilab ta'mir ishlariga mablag'larni rejalashni takomillashtirish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Asfaltbeton qoplamalarni yaroqsiz holatga kelishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi. Ana shunday omillardan biri asfaltbeton qorishmalarini tayyorlashda ishlatiladigan materiallar va ularni tayyorlovchi qurilmalardir.

Yo'l qurish va ulardan foydalanish korxonalari tarkibida 94 dona tosh maydalash va 155 dona asfaltqorg'ich qurilmalar mavjud, Chaqiq tosh va qum materiallarning taxminan 80 % daryolardan qazib olinayotgan shag'al - qum aralashmalaridan iborat bo'lib, 20 % tabiiy tosh materillarini maydalash orqali olinmoqda [1]. Tosh maydalovchi qurilmalarning o'rtacha 25 % 1990-yildan keyin qurilgan. Bugungi kunda chaqiq tosh va qum ishlab chiqarishda quyidagi muammolar mavjud:

1. Shag'al – qum va tog' jinslarini qazib olishda yuqori va ostki qatlamlaridagi tuproq va mustahkamligi past jinslar qo'shib olinayotgan xom-ashyo sifatini pasaytiradi. Natijada chaqiq tosh va qum tarkibidagi tuproq va mustahkamligi past jinslar miqdori meyor talabiga javob bermaydi. Buning uchun joylardagi qurilmalarga qo'shimcha materiallarni yuvish jihozlarini o'rnatish zarur;
2. Ko'p joylarda maydalangan chaqiq tosh bo'laklari yani tarkibidagi yapaloq va ignasimon donachalar miqdori me'yor talabiga javob bermaydi. Buning asosiy sababi qurilmalarning manan eskirishi, ehtiyot qismlarining sifatsizligi bo'lib natijada texnologik jarayonning buzilishiga olib kelmoqda;
3. Ayrim holatlarda ishlab – chiqarilgan chaqiq tosh va qum materiallarining tarkibi meyoriy talablarga javob bermaydi, sababi saralash elaklarining sifatsiz yasalgani uchun tezda ishdan chiqib o'lchamlari o'zgarib ketyabdi;
4. Boshqarish ishlari to'liq avtomatlashtirilmagan. Asfaltbeton qorishmalarni ishlab chiqarishda bartaraf etilishi mumkin bo'lgan dolzarb muammo bo'lib qolyabdi.
5. Ayrim ABZ larda mineral materiallarning o'lchov tarozilari sig'implari saralash elaklari va harorat o'lchov asboblari yaxshi ishlamaydi va hatto ayrimlari mavjud ham emas;
6. Aralashtirish va uzatish jihozlarining ixotalari eskirganligi sababli atrof-muxit ifloslanmoqda;
7. Ayrim joylarda bitum omborlarining atrofi o'ralmagan usti yopilmagan va jihozlanmagan holatlar ko'payib bormoqda;
8. Chaqiq tosh va qum materiallari uchun alohida bo'nikerlar o'rnatilmagan;

Bundan tashqari, qurilish ashyolari ishlab chiqarishda korxonalar rejalarini qurilish-montaj tashkilotlarining mavjud imkoniyatiga mos holda qurilish ashyolari texnik resurslari va zarur uskunalarni yetkazib berish kerak va mavjud qurilmalarni mukamal ta'mirlash zarur [2].

Qurilish ashyolari texnik bazasining rivojlanishini va qurilish sanoatining ishlab turgan quvvatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish va takomillashtirish kabi ishlarni amalga oshirish kerak. Shuningdek, qurilish ashyolari ishlab chiqarish muammosi va ularning iste'moli o'rtasidagi bog'lanishning murakkabligini bartaraf etish kerak.

Qurilish –montaj tashkilotlarining ehtiyojlari uchun konstruksiyalar ishlab chiqaradigan korxonalarning birinchi galdagi vazifalarini aniq belgilab qo'yish kerak ya'ni ishlab chiqarilayotgan materiallarga qat'iy talab belgilab qo'yish zarur.

Xom ashyolarni kerakli hududlarga joylash, ishchi kuchlaridan to'g'ri foydalanish va zamonaviy ilg'or texnologiyalarni qo'llash asosiy vazifalardan biridir. Jahon andozalariga mos zamonaviy qurilish jihozlaridan foydalanish kerak.

Shulardan kelib chiqib mavjud qurilmalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilish kerak. Aks holda, materiallar sifatsiz chiqishda davom etadi. Shuning uchun asfaltbeton qoplamali yo'l to'shamalarda buzilishlar ko'payib bormoqda.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun eng avvalo sifatli materiallar zahiralarini qidirish, sifati past bo'lgan materiallarni sifatini yaxshilovchi qo'shimchalar bilan birgalikda qo'llash, qurilish materiallari sifatini tekshirishni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.X. Saidov, T.J. Amirov, X.Z. G'ulomova. Avtombil yo'llari: Materiallar, qoplamalar, saqlash va tamirlash. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent 2010 y. 165-bet.
2. E.Qosimov. Qurilish ashyolari. Toshkent – MEHNAT. 2014 y. 494-bet